

**“Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi” AJ barcha ovoz beruvchi aksiyalari
bo‘yicha yagona aksiyadorining 2/2026-sonli
QARORI**

Toshkent sh.

2026-yil 4 aprel

“Yangi Angren IES” AJning jami chiqarilgan va joylashtirilgan aksiyalari 37 732 650 donani tashkil etadi, jumladan:

- 37 579 750 dona oddiy;
- 152 900 dona imtiyozli aksiyalar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-noyabrdagi 02/09-5-17/685-sonli ishonchnomasiga muvofiq “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Boshqaruv raisi B.Jurayevga yagona aksiyador nomidan ovoz berish huquqi berilgan.

Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58 va 59-moddalariga asosan quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

KUN TARTIBI:

1. “Yangi Angren IES” AJning ichki korporativ hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun hamda Korporativ boshqaruv kodeksiga asosan Jamiyatning yangi tahrirdagi “Yagona aksiyador to‘g‘risida”gi Nizomini; “Manfaatlar to‘qnashuvi holatida xarakatlar tartibi to‘g‘risida”gi Nizomini; “Dividend siyosati to‘g‘risida”gi Nizomni; “Ichki nazorat to‘g‘risida”gi Nizomni; “Boshqaruv va nazorat organlari hisobotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi Nizomni; “Yirik bitimlarni tuzish to‘g‘risida”gi Tartibini va “Affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida”gi Tartibini ma’qullash va tasdiqlash uchun Yagona aksiyadorga taqdim etish taklif etildi.

Bu nizomlar jamiyat kuzatuv kengashining 2025-yil 5-sentabrdagi 3/2025-sonli bayonnomasida ko‘rib chiqildi va ma’qullandi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Yangi Angren IES” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalarining egasi-yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun hamda Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga asosan ishlab chiqilgan va yangilangan Nizomi va Tartibi normativ hujjatlari, jumladan:

- “Yagona aksiyadori to‘g‘risida”gi Nizom;
- “Manfaatlar to‘qnashuvi holatida harakatlar tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;
- “Dividend siyosati to‘g‘risida”gi Nizom;
- “Ichki nazorat to‘g‘risida”gi Nizom;

“Boshqaruv va nazorat organlari hisobotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi Nizom;


“Yirik bitimlarni tuzish to‘g‘risida”gi Tartib;

“Affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida”gi Tartibi tasdiqlansin.

2. “Yangi Angren IES” AJning ijroiya organi (Radjapov)ga:

Ushbu qaror ijrosini ta’minlash hamda ma’lumotlarni o‘z vaqtida jamiyatning veb-saytiga va tegishli ommaviy axborot vositalari orqali oshkor etilishini ta’minlasin.

**“Yangi Angren IES” AJning barcha ovoz
beruvchi aksiyalarining ishonchnoma
asosida boshqaruvchisi - yagona aksiyadori
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ boshqaruv
raisi**



B. Jurayev

